

***Usarova Laylo ibragimovna.***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti.*

*O'zbek tili va adabiyoti Kafedrası dotsenti.*

***Abduaxatova Ma'mura Turob qizi***

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*.O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi.*

*Abdabiyotimiz tarixida betakror siymolardan biri Abdulla Qahhor bu zot adabiyotga kirib kelgandayoq so'z sehgari sifatida e'tirof etilgan. Abdulla Qahhor jahon adabiyotida ham eng taniqli yozuvchi sifatida turadi.*

***A.Oripov.***

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'zining kichik hikoyalari bilan butun bir mavzuni olib chiqa oladigan qalami o'tkir yozuvchi Abdulla Qahhor hayoti va uning hikoyalar tahlili keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Abdulla Qahhorning shaxsiyati, samimiy tili, Jahon yozuvchisi Chexovning serqirra ijodi, o'ziga xos yozish uslubi.*

Abdulla Qahhor serqirra ijodkor, qalami o'tkir yozuvchi. U 1907-yil 17-sentabrda Qo'qonda tug'ilgan. Yozuvchi yashagan yillar ikkinchi jahon urushiga to'g'ri kelgan. Shuning uchun ularning oilasi bu qishloqdan unisiga ko'chib yurgan, oilasi temirchilik bilan kun kechirgan. Yozuvchining ilk she'ri "oy kuyganda" nomi ostida shu tariqa "Mushtum" jurnalida bosilib chiqqan.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotiga o'zining kichik-kichik hikoyalari bilan kirib kelgan. Yozuvchining hikoyalarida mazmun qisqa va lo'nda qilib tasvirlanadi. Bevosita yozuvchining hikoyalari odamni o'yga toldirmasdan qo'ymaydi. Chunki mazmun kichik bo'lsada undagi g'oya bir olam ibrat beradi.

Avvalo adabiy asar yozish uchun talant kerak. Shubhasiz Abdulla Qahhorda shunday talant bor edi. Yozuvchi o'zining asaridagi detallarga alohida

e'tibor berib yozadi. Adibning "Dahshat" hikoyasiga kelsak, voqealar tasviri mobaynida Dodxohning uyi o'zi bir qabristondek va o'sha yerdagi muhitning o'zi dahshat ekandek tuyuladi. Asarda Unsin obrazi orqali yosh bir ayolning umri mana shunday dahshatlar ichida so'nib borayotganligi tasvirlanadi. Voqealar rivojida Unsin Dodxohning aytgan gaplariga rozi bo'ladi va On hazratining oldiga borib bir qumg'on choy damlab keladi. Bu shartga u Dodxoh butunlay seni uyingga yuboraman degan gapga ishonadi. Lekin uning umri hikoyada fojiaga aylanadi. Hikoyada birgina Unsin emas unga o'xshagan ovsinlarning hayoti ham tasvirlanadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, yozuvchi hikoyalarida jahon yozuvchisi A.P. Chexovning asarlar pafosi sezilib turadi. Har ikkala yozuvchi asarlarida davrning og'riqli nuqtalari tasvirlab o'tiladi. Yozuvchi hikoyalarini Chexovning hikoyalari bilan tahlil qilamiz.

Chexovning "Garov" hikoyasida keksa bir banker xoyu-havasga o'chib o'zing butun bir umrini ostun-ustun qilib yuboradi. U hikoyada davomida bir umrlik qamoq jazosini o'limdan oson deb qaror qabul qiladi. Shu tariqa bankerning hayoti dahshatga aylanadi. Har ikkala hikoyada ham bir insonning fojialarga to'la hayoti tasvirlanadi. Abdulla Qahhor hikoyasida yaqinlari tomonidan, Chexov hikoyasida esa o'zi umrini o'zi barbod qilganligi tasvirlanadi. Ikkala yozuvchining hikoyalarida ham mazmun o'zing pafosga yog'rilganligini ko'rsatgan. Yozuvchilarning hikoyalarida kimnidir qoralab yozish emas, balki ulardagi kamchiliklarni to'g'irlash yotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. Xudoyberdiyev. E. Adabiyotshunoslikka kirish. T. 2003
2. Umurov. H. Adabiyot nazariyasi.
3. Mahmudov. N A. Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir. 44-46b.